

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.30.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHUKUROV UKTAM BAXODIROVICH

**BADIIY DISKURS KOGNITIV-PRAGMATIK MUNDARIJASINI
SHAKLLANTIRUVCHI LISONIY VOSITALAR
(o‘zbek va ingliz tillari materialida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Shukurov Uktam Baxodirovich

Badiiy diskurs kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalar
(ingliz va o'zbek tillari materialida)..... 3

Шукуров Уктам Баходирович

Лингвистические средства формирования когнитивно-прагматического
содержания художественного дискурса
(на английском и узбекском языках)..... 29

Shukurov Uktam Bakhodirovich

Linguistic tools forming the cognitive-pragmatic content of artistic discourse
(in English and Uzbek languages)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03.30.2019.Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SHUKUROV UKTAM BAXODIROVICH

**BADIIY DISKURS KOGNITIV-PRAGMATIK MUNDARIJASINI
SHAKLLANTIRUVCHI LISONIY VOSITALAR
(o‘zbek va ingliz tillari materialida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2135 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Shahriyor Safarovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

O'sarov Ibrohimjon Ko'rpashayevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning «16» iyun 2023-yil soat 12 ⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61454 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «06» iyun kuni tarqatildi.
(2023-yil «06» iyun daqi № 75 raqamli reestr bayonnomasi).



I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

G'.Q. Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon filologiya fanida diskurs va matnning struktur tuzilishi, tarkibiy qismlari, semantik xususiyatlari, til va nutq tizimida egallagan oʻrni, lisoniy belgilari, tasnifi kabi muammolar jadal oʻrganilib, ushbu hodisalarning stilistik, psixolingvistik, lingvokulturologik, pragmatik va kognitiv tahliliga bagʻishlangan monografik va dissertatsion tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Hozirgi paytda tobora rivojlanib borayotgan antropotsentrik yondashuv turli uslub va janrlarda bitilgan matnlarni ularni yaratuvchi ijodkor shaxslarning kommunikativ maqsadini voqelantiruvchi tuzilmalar sifatida ilmiy tavsifini berish vazifasini dolzarblashtirmoqda.

Dunyo tilshunoslik markazlarida mazmunning lisoniy va mental voqelanishi oʻrtasidagi bogʻliqlikni badiiy diskurs negizida tahlil qilishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Buning natijasida, inson omili bilan bogʻliq lisoniy hodisalar madaniyatshunoslik, lingvistik pragmatika va kognitologiya fanlari kesishuvida batafsil tadqiq etilmoqda. Shuning bilan birgalikda, qator fanlar integratsiyasi zahirida erishilgan nazariy va amaliy xulosalar asosida badiiy matnning mazmun tarkibini shakllantiruvchi birliklar va vositalar tahlilining yangi usullari, amallari va mexanizmlarini takomillashtirish zarurati kuchayib bormoqda.

Oʻzbekistonda kechayotgan jadal islohotlarning hozirgi bosqichida milliy tilshunoslik ham zamon talablariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Xususan, turli tillarda bitilgan badiiy matnlarni toʻgʻri talqin qilish lingvodidaktikaning amaliy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Zotan, davlat rahbari tomonidan “davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyatlarini yaratish hamda ushbu yoʻnalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda koʻmaklashish”¹ masalasi kun tartibiga qoʻyildi. Shu asnda, har bir millat milliy madaniyatidan darak beruvchi badiiy matnlar mazmuni voqelanishining diskursiv va kognitiv-pragmatik jihatlarini ilmiy oʻrganishga ehtiyoj paydo boʻladi. Badiiy tafakkur mahsuli boʻlgan matnlarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida, bir tomondan, matnshunoslikni nazariy jihatdan takomillashtirish maqsadi tursa, ikkinchi tomondan, badiiy tarjima bilan bogʻliq muammolarni hal etish imkoni paydo boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5847-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-3775-sonli, 2020-yil 11-noyabrdagi “Taʼlim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ- 4884-sonli, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq taʼlimi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qoʻllab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-

¹“Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora – tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ – 5117 – sonli qaror. Manba: <https://lex.uz/docs/5426736>

tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4963-sonli, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiy matn hamda diskursning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bajarilgan.²

Turli janrlardagi matnlarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq masalalar M. Hakimov, S. Boymirzaeva, U. Nosirova, Sh. Yusupova va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rib chiqilgan.³

Hozirgi davrda matnning antropotsentrik nazariyasi doirasida badiiy ifodaning kognitiv tabiatini yoritish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda bajarilgan ishlar qatoriga, jumladan, konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, konseptlar nazariyasi, intertekstuallik, kognitiv semantika, kognitiv stilistika yo‘nalishlarida olib borilayotgan tadqiqotlarni kiritish mumkin.⁴

Tilshunoslikda matnning tarkibi va mazmun tuzilishi muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘p bo‘lsa-da, lekin ba‘zan matnning kognitiv va pragmatik jihatlarini

²Halliday M.A.K. *Linguistic Studies of Text and Discourse*. – L. – N.Y.: Continuum, 2002. – 320 p.; Van Dijk T.A and Kintsch W. *Strategies of Discourse Comprehension*. – New York: Academic Press, 1983. – 225 p.; Schiffrin D. *Approaches to Discourse*. – L.: Blackwell, 2003. – 407 p.; Leech N. *Style in Fiction*. – New – York: Longman, 1981. – 325 p.; Verdonk P. *Stylistics*. Oxford Introductions Language study of Text. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 124 p.; Гальперин И.П. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – 139 с.; Макаров М. Основы теории дискурса. – М.: Гнозис, 2003. – 280 с.; Трофимова Ю. М. Лингвистика поэтического текста. – Саранск: Мордовский государственный университет, 2015. – 172 с.; Mamajonov A., Abdupattoev M. *Matn nazariyasi*. – Farg‘ona, 2016. 5 b.; Yo‘ldoshev M. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. – T.: Fan, 2018. – 160 b.; Сафаров Ш. *Лингвистика дискурса*. – Челябинск: ЧГИК, 2018. – 315 с.; Ashurova D.U., Galiyeva M.R. *Text Linguistics*. – T.: Turon – Iqbol, 2016. – 324 p.

³Hakimov M. *O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik-pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.nomz... diss.* – T., 1993. – 37 b; Hakimov M. *O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol.fan.dokt... diss.* – T., 2001. – 23 b; Boymirzaeva S. *O‘zbek tilida matnning kommunikativ – pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filol. Fan. Dokt... diss.* – T., 2010. – 49 b.; Nosirova U. *Poetik matnlarning pragmatik xususiyatlari*. – Farg‘ona: Classic, 2020. – 152 b.; Yusupova Sh. *Diniy matn pragmatikasi*. – Farg‘ona: Classic, 2020. – 128 b.

⁴Stockwell P. *Cognitive Poetics: An Introduction*. – L.: Routledge, 2002. – 204 p.; Semino E. *A Cognitive Stylistics Analysis to Mind style in Narrative Fiction//Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis*. – Amsterdam: John Benjamins, 2002. – P. 95-122; Молчанова Г. Г. Когнитивная стилистика и стилистическая типология // Вестник МГУ. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2001. № 3. – С. 60-70; Маслова В.А. *Поэтический текст. Новые подходы и решения*. – М.: Флинта, 2016. – 320 с.; Ашурова Д.У. *Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистики // Filologiya masalalari*. T., 2003. № 1. – С.41-45; Xudoyberganova D. *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. – T.: Fan, 2013. – 136 b.; DJusupov N.M. *Ingliz tilidagi badiiy matnda ilgari surish vositalarining kognitiv–stilistik asoslari: Filol. fan. dokt. diss. avtoreferati*. – T., 2020. – 81 b.; Normurodova N.Z. *Ingliz badiiy diskursida antropotsentriзмning ifodasi: Filol. fan. dokt. diss. Avtoreferati*. – T., 2020. – 78 b.

bir-biridan ajratgan holda o'rganish an'anaga aylanib borayotgani sezilib qoladi. Mazkur tadqiqotda pragmatik tavsif nutqiy tuzilmalar idrokida muhim o'rin egallaydigan kognitiv tamoyillarning ajralmas qismi sifatida qaralib, badiiy diskursning hosil bo'lishiga hissa qo'shadigan vosita va omillarni shu nuqtai-nazardan o'rganish rejalashtirilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kommunikativ-pragmatik aspektlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matn tahlili asosida diskursiv mazmuni hosil qiluvchi lisoniy vositalar majmuasini aniqlash orqali ularning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

diskurs va matn tushunchalarining o'zaro munosabatini o'rganish orqali badiiy mazmun ifodasida muloqot konteksti hamda pragmatik mo'ljalning rolini aniqlash;

badiiy matnning muloqot vaziyatida faollashuvini kognitiv tilshunoslik nuqtai-nazaridan o'rganish asosida muallif va o'quvchi tomonidan matn ijodi va idroki sharoitida bajariladigan lisoniy - tafakkur amallari turlarini ajratish;

ingliz va o'zbek badiiy matnlarida tagma'no voqelanishining diskursiv shartlarini belgilash hamda matnning mazmun kogerentligini ta'minlovchi vositalarning pragmatik mohiyatini tavsiflash;

voqea hodisalar zamon-makon munosabatlariga ishora qiluvchi temporal birliklar va tema-rema bog'lamlarining axborot uzatish jarayonida bajaradigan vazifasini o'rganish;

til tizimining turli sathlariga oid assotsiativ bog'lanishlarning badiiy mazmun shakllanishidagi rolini yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida muloqot jarayonida kommunikativ birlik vazifasini o'taydigan hamda struktur va mazmun tuzilishi jihatidan yaxlit ko'rinish olgan ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan badiiy matnlar namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek mualliflari ijodiga mansub ma'lum turdagi axborotni o'quvchiga yetkazish niyati zohirlangan hamda shu yo'sinda uni tushunish uchun sharoit yaratish mo'ljaliga ega badiiy matnning kognitiv-pragmatik tavsifi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsifiy, semantik, struktur-formal, qiyosiy, kontekstual, kommunikativ, pragmatik va konseptual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

pragmatik mo'ljalga ega matnlarning kognitiv mundarijasini bayon etish uslubi o'quvchining uzatilayotgan axborotning asosiy qismini ajratib olish va xotirada saqlab qolish faoliyatiga qay darajada ta'sir o'tkazishi ilk bor izohlangan;

pragmatik mo'ljalga ega badiiy matnlarning muloqot vaziyatida faollashuvi kognitiv tilshunoslik nuqtai-nazaridan ochib berilib, ushbu matnlarni shakllantirish va tushunish sharoitida muallif va o'quvchi bajaradigan lisoniy-tafakkur amallarini aniqlash usullari asoslangan;

ingliz va o'zbek badiiy diskursida tagma'no ifodalanishining diskursiv shartlari belgilanib, matn mazmuni kogerentligini ta'minlovchi lisoniy vositalarning pragma-diskursiv ahamiyatga egaligi isbotlangan;

bayon qilinayotgan voqea-hodisalar zamon-makon munosabatlarini namoyon qiluvchi temporal tuzilmalar va tema-rema bog'lamlarining axborotning muhim qismini oldga surish bilan bog'liq jihatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tadqiqot natijalari matn tilshunosligi, matn pragmatikasi, kognitiv adabiyotshunoslik, chog'ishtirma stilistika, antropologik tilshunoslik, lingvokulturologiya, semantika sohalaridagi tadqiqot hamda ishlanmalarga muayyan hissa bo'lib qo'shiladi;

badiiy diskurs mazmunini kognitiv-pragmatik jihatdan tavsiflash mo'ljaliga ega tahlil usullarining milliy tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi va ularning yangi rusumdagi darslik, o'quv qo'llanmalarni mukammallashtirishga xizmat qilishi asoslangan;

tadqiqot jarayonida to'plangan faktik material badiiy matnlarda aks topgan diskursiv mavzular namunalari bo'lib, ularning mazmun tuzilishi borasida bildirilgan fikr-mulohazalardan ingliz va o'zbek adabiyotidan ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning tahlil metodologiyasi va metodi bilan uyg'unligi, muhokama qilinayotgan muammoning dolzarbligi, yangi va muhim vazifalarning hal etilganligi, katta hajmdagi material tahlili asosida erishilgan lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz va o'zbek badiiy matnlari pragmatik tarkibining kognitiv tahlili diskurs hodisasining tabiatini keng ko'lamda tavsiflash hamda uning botiniy belgilarini chuqurroq anglash imkonini beradi; tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridagi yetakchi konsepsiyalarning amaliy tatbiqi samaradorligini tasdiqlaydi hamda til tizimi tadqiqida kognitiv-pragmatik yondashuvning istiqbolli ekanligini dalillaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning materialidan OTMlardagi o'quv jarayonida umumiy tilshunoslik, pragmalingvistika, matn tilshunosligi, kognitiv stilistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlar bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, dissertatsion ishlarni yozish hamda o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Ingliz va o'zbek badiiy diskursining kognitiv-pragmatik mundarijasini voqelantiruvchi lisoniy vositalar hamda nolisoniy omillarning nazariy va amaliy jihatlari aniqlash jarayonida erishilgan natijalar asosida:

kognitiv-pragmatik tuzilmalarning matnning uslubiy-funksional xususiyatlarini shakllantirishi bilan bog'liq jihatlari tahlili natijalaridan 58545-

EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 10-avgustdagi 2244/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dasturlashtirilgan tartibda ta’limni tashkil etishni takomillashtirish xususiyatlari bo’yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar xalqaro loyihaning platformadagi kontentini yaratish imkoniyatini taqdim etgan;

insonning dunyoqarashi, ruhiy holati, ichki dunyosi, hayotga munosabatini aks ettiruvchi metaforalarning qiyosiy tahliliga oid dissertatsiyaning xulosalaridan I-204-4-5 raqamli “Ingliz tili mutaxassislik fanlaridan axborot-texnologiyalar asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar instituti 2022-yil 10-avgustdagi 2246/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida mutaxassislik fanlardan axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida virtual resurslar yaratishda badiiy diskursning kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalarni tahlil qilish asosida, diskursiv tahlil, komponent tahlil, tavsifiy-tahlil, statistik metodlaridan foydalangan holda “Matnning filologik tahlili”, “Badiiy matnning konseptologik tahlili”, “O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari”, “O‘qish va yozish ko‘nikmalari” fanlari bo’yicha o‘quv adabiyotlari yaratilgan;

badiiy diskurs kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalarga oid materiallardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom Samarqand” ko‘rsatuvi hamda “Samarqand sadosi” radioeshittirishining 2022-yil 10-avgust kuni efirga uzatilgan eshittirishida foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 11-avgustdagi 01-12/291-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu turkumdagi eshittirishlarning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan va ular yangi manbalar bilan boyitilgan.

Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018-yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+dasturining 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar instituti 2022-yil 21-noyabrdagi 3154/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillarini qiyosiy tahlil qilish orqali badiiy diskurs kognitiv-pragmatik mundarijasini shakllantiruvchi lisoniy vositalardan ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida uslubiy qo‘llanmalarni yaratishda yangi yondashuvlar sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, boblar bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 123 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va himoyaga olib chiqilgan asosiy mazmunlar bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Matn va diskursning lisoniy hodisa sifatida o'rganilishi”** deb nomlangan birinchi bobida matn va diskurs hodisalarining lisoniy maqomi belgilanib, ularning o'zaro munosabatlari yoritilgan va matn tahliliga kognitiv-pragmatik yondashuvning matn mahsuldorligi isbotlanib, mazmunning kontekst bilan bog'liq jihatlari qayd etilgan.

Matn ikki tizimda namoyon bo'ladigan birlikdir, unda bir tomondan, “voqelik parchasi” aks topsa, ikkinchi tomondan, har qanday matn lisoniy vositalar ishtirokida tarkib topadi. Shu jihatdan, matnni turli kategorial belgilari bilan ajralib turadigan mavhum model sifatida tasavvur qilish mumkin.⁵

Matnning mavhum birliklar qatoriga kiritilishi uning diskurs bilan qiyosiy o'rganilishiga borib taqaladi. Diskurs matn tilshunosligi doirasida o'rganib kelinmoqda va diskursiv tahlil ushbu sohaning usullaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, qomusiy lug'atda diskurs pragmatik, ijtimoiy-madaniy, ruhiy va boshqa nolisoniy omillar qamrovida bo'lgan matn sifatida ta'riflanadi. Ta'rifda ta'kidlanishicha, diskurs “hayotga singigan nutq”dir va shu sababli diskurs tushunchasini, matn tushunchasidan farqli ravishda, bevosita nutq jarayoni bilan bog'lana olmaydigan qadimgi yozma yodgorliklarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi.⁶


Ravshanki, muloqotning samarali kechishi haqidagi tasavvur hosil bo'lishida asosiy rolni kognitiv jarayonlar o'taydi. Shu sababli pragmatik va kognitiv tahlilda lisoniy shaxs bajaradigan faoliyat turlarini o'rganish muhimdir. Zero, diskurs “nutq oqimi, doimiy harakatdagi til” sifatida voqelikda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni, davr tarixiy rivojini, kommunikatsiya ishtirokchilarning shaxsiy va jamoaviy xislatlarini, muloqot vaziyatini aks ettiradi. Shuningdek, diskursda umumiy, milliy va xususiy mentalitet, madaniyat o'z o'rnini topadi.

Shunday qilib, matn va diskurs hodisalarining munosabatini oddiy ko'rinishda tasvirlash odat tusiga aylandi. Bu ikki tushunchani farqlash izmida bo'lganlar ularga xos xususiyatlar qarama – qarshiligiga asoslanish niyatidadirlar. Masalan,

N. Normurodova ushbu qarama-qarshiliklar qatorini quyidagi rasmda tasvirlaydi [Normurodova 2020: 28].

⁵ Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Text Linguistics. – T.: Turon – Iqbol, 2016. – P. 19.

⁶ Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – С. 136-137.



1-rasm. Matn va diskursning farqlovchi belgilari

Kognitiv talqinda matn tugallangan mahsulot sifatida o'rganilishi mumkin, diskurs esa matnlarni hosil qiluvchi jarayondir. Matn bevosita material obyekt ko'rinishida o'rganiladi, diskurs biroz murakkab hodisa va uni tahlil qilish uchun so'zlovchining maqsadida ko'zlanayotgan pragmatik mo'ljalni aniqlash lozim bo'ladi. Matn va diskurs faqat inson tomonidan erishilgan natijalarni aks ettiruvchi tuzilma sifatida emas, balki "yangi olamni yaratuvchi jarayon" ko'rinishida tasavvur qilinishi kerak. Har bir matn real voqelikda aks topishi mumkin bo'lgan "imkoniyatdagi olam namunasidir". Matn va diskurs doimiy ravishda inson tafakkuri harakatini aks ettiruvchi va ushbu harakatni lisoniy voqelantiruvchi vositadir. Oqibatda, diskurs on-line usulida yaratiladigan nutqiy faoliyat mahsuliga aylanadi.⁷

Aynan shunday yondashuv asosida matn va diskurs hodisalarining semantik-stilistik, kommunikativ-pragmatik, kognitiv qatlamlarini farqlash va ularning umumiy mazmun ifodasidagi rolini aniqlash mumkin, deb hisoblaymiz.

Diskursning kognitiv qatlami tahlilida modallik, konseptuallik, intertekstuallik kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Matn kognitiv tilshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinishida kognitologiyada tajribadan o'tgan usul va amallarga murojaat qilinadi.

Matn estetik-madaniy qatlamga ham ega bo'lib, bunda uning madaniy mohiyati, milliy belgilari, baholanish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi.

Sanab o'tilgan qatlamlar tahlili zamirida, albatta, diskursning kommunikativ-kognitiv hodisa sifatida ta'riflanishi turadi. Bunda "matnning bevosita kommunikatsiyada, harakatda, ijtimoiy-madaniy kontekstda, lisoniy va nolisoniy

⁷Кубрякова Е.С., Александрова О.В. О контурах новой парадигмы знания в лингвистике // Структура и семантика художественного текста. – М.: Спорт – Академ Пресс, 1999. – С. 194-195.

omillar o‘zaro aloqasida, lisoniy va nolisoniy bilim doirasida” faollashuvi nazarda tutiladi.⁸

Xullas, matn va diskurs bir xilda maqsadli axborot tashuvchi tuzilmalar bo‘lib, turli lisoniy va nolisoniy ko‘rsatkichlarga egadir. Shu bois, ular: a) yozma va og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin; b) ular semantik va grammatik jihatdan yaxlitlik xususiyatiga ega; v) ularning semantik va grammatik yaxlitligi lisoniy vositalar yordamida shakllanadi; g) ularni shakllantiruvchi nolisoniy omillar qatoriga milliy-madaniy, tarixiy, ruhiy (mental), siyosiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlar kiradi.

Aytilganlar badiiy asarni kognitiv va pragmatik tahlil usullari tatbiqida tahlil qilish lozimligidan darak beradi. Bunday yondashuv asosida muallif ongli faoliyatini personajlar va o‘quvchi ongi nuqtai nazaridan idrok etishga imkon beradi.

Demak, matn va diskurs hodisalari tahliliga kognitiv-pragmatik yondashuv an’anaviy sintaktik yondashuv paytida ko‘zga tashlanadigan kamchiliklarni bartaraf etishga imkon beradi. Lekin kognitiv-pragmatik tahlilning ham nuqsonsiz bo‘lishini tasavvur qilish qiyin. Shu sabab, matnni til tizimining alohida bir sathini aks ettiruvchi hodisa sifatida qabul qilish xavfli. Boz ustiga, matnlar o‘z tuzilishi, maqsadi va qaysi funksional uslubga xosligiga qarab, turlarga ajraladi.

Bu turlarni bir xil mezonlar asosida, birgina yondashuv usullari tatbiqida tavsiflash yoki tasniflash qiyin masala. Shu sabab, kognitiv-pragmatik yondashuvni matnning tub mohiyatini aniqlashtiradigan yetakchi yo‘nalish sifatida e’tirof etgan holda, uning boshqa tahlil usullari bilan hamohang bo‘lishi va hamkorlik qilishi mumkinligini inkor etmaslik lozim.

Badiiy matn bilan tanishishning o‘ziyoq uning murakkab lisoniy-tafakkur jarayoni ekanligini ma’lum qiladi. Bu jarayonda qator idrok-tafakkur harakatlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar quyidagilardan iborat: lug‘aviy va boshqa birliklarni tanib olish; so‘zlarni kodlashtirish; ma’noni ajratish; muallif maqsadi haqida faraz qilish. Bunday farazga kelish uchun kontekstdagi axborot bilan birgalikda, o‘quvchining olam haqidagi bilimiga tayanish kerak bo‘ladi.⁹ Bilim zahirasi qanchalik boy bo‘lsa, o‘quvchining matnni tushunishi shunchalik oson kechadi, chunki bilim axborotning tartiblashgan to‘plamidir. Bilim zahirasining sayozligi mazmunni anglashni siyqalashtiradi. Shunga binoan tushunish yangi faktlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra, ko‘proq olam, voqelik haqidagi farazning tasdig‘idek ko‘rinadi.

Matn mazmun tuzilishida ikkita qatlam ajraladi: ulardan biri propozitsiya qatlami bo‘lsa, ikkinchisi olam haqidagi bilimdir. Olam haqidagi bilim matn propozitsiyasini shakllantirish va uni tushunishning asosida turadi. Bundan bizni qiziqtirayotgan muammolarni quyidagi ko‘rinishlarda tasvirlash mumkin: a) matnni shakllantirishda propozitsiya qatlamining o‘rni nimalardan iborat; b) vaziyatlar modelining tuzilish qonuniyatlari nimalardan iborat va ulardan matnni

⁸Нормуродова Н.З.Вербальная экспликация антропоцентризма в англоязычном художественном тексте: Дисс....доктора филол. наук. – Т., 2020. – С. 29.

⁹ Молчанова Г.Г. Когнитивные проблемы категоризации свертка смысла и емкость текста // Материалы первой международной школы-семинара по когнитивной лингвистике. - Тамбов, 1998. - С. 49.

tushunishda qanday foydalaniladi, v) ko'rsatilgan qatlamlarning o'zaro aloqasi qanday ko'rinishga ega.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- matn kategoriyalarining shakllanishi davomli jarayon bo'lib, ularni aniqlash uchun ba'zan kontekstga tayanishga to'g'ri keladi;

- matn mazmunini tushunish paytida uning tuzilishini inobatga olish bilan birgalikda, ifodalanayotgan propozitsiyani hamda yashirin ko'rinishdagi vaziyatlar modellarini ajratish lozim bo'ladi;

- tushunish jarayoni har bir o'quvchi uchun turli bosqichlarda kechadi va bu matnning mental tuzilishini tasvirlovchi bilimlar sxemalari bilan bog'liq;

- tushunish faoliyatining dastlabki bosqichi mantiqiy xulosalar chiqarilishi va sabab-oqibat munosabatlari aniqlanishi bilan tugaydi.


Kontekst nazariyasi tilshunoslikning taraqqiyot bosqichlarida o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Kontekstual tahlil o'ta muhim usullardan bo'lib, u tilshunoslik fanining keyingi yillarda erishgan yutuqlarida o'z hissasiga ega. Ayniqsa, kognitiv tilshunoslikning rivoji natijasida kontekst hodisasi tadqiqi yanada dolzarblashadi. Shu asnoda, kontekstning tabiati va uning nutqiy ijodkorlik jarayonida namoyon bo'ladigan xususiyatlarini o'rganishga ehtiyoj kuchaydi. Kognitologiyada ta'kidlanishicha, olam manzarasining lisoniy voqelanishi va idroki insonning lisoniy-tafakkur faoliyati natijasidir. Ammo ushbu faoliyat jarayonida obyektiv yoki subyektiv holatlardan qaysi biri ustuvorlik qilishi haqidagi qarashlarda yakdillik yo'q. Ushbu muammo muhokamasi qatnashchilari an'anaviy ravishda ikki xil fikr bildirib kelmoqdalar. Ulardan bir guruhi uchun kontekst olam xususiyatlarini aks ettiruvchi tuzilma bo'lib, ushbu xususiyatlar zamon, makon, so'zlovchi va boshqa ko'rinishlarda ifoda topadi. Faylasuflarga xos bo'lgan ushbu talqinda kontekstning obyektiv xususiyatlari namoyon bo'ladi: "kontekst referentni aniqlash uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar to'plamidan iborat va bunda har bir ko'rsatkich olamning u yoki bu parchasini namoyish qiladi".¹⁰ Keltirilgan ta'riflardan ma'lum bo'ladi, obyektiv kontekst voqea-hodisaning haqiqiy, metafizik holatidir. Olamning shaxs tomonidan idroki jarayonida esa, subyektiv kontekst (manzara) namoyon bo'ladi. Shunday qilib, olamning asl qiyofasi obyektiv kontekstni tashkil qilsa, uning xususiyatlari tasavvuri esa subyektiv kontekstni hosil qiladi.

Ushbu kontekstlar o'rtasidagi munosabat, dastlabki nazarda, juda oddiydek tuyuladi: kognitiv kontekst obyektiv olam haqidagi bilim, ishonch va tasavvurlarni ifodalaydi. Obyektivlik va subyektivlik o'rtasidagi bunday munosabat badiiy to'qimalar yaratishning tagzaminida turadi.

Aslini olganda, obyektiv kontekstni aniqlash doimo muammo tug'dirib kelgan. Taklif qilingan mezonlar ko'p bo'lishiga qaramasdan, ular ba'zan bir-birini inkor etadi va bu borada yagona to'xtamga kelishni qiyinlashtiradi. Boz ustiga, ba'zan voqeaning qaerda va qachon sodir bo'lganini aniqlash imkonini topolmaymiz.

¹⁰ Kaplan D. Afterthoughts in Themes from Kaplan - Oxford: Oxford Univ. Press, 1989. – P. 565-614.

Obyektiv va subyektiv munosabatlarning matnda faollashuv darajasini quyidagi ko‘rinishga ega ekanligini ko‘rish mumkin:



2-rasm. Obyektiv va subyektiv munosabatlarning matnda faollashuv darajasi.

Har holda, obyektiv va kognitiv (subyektiv) kontekstlar o‘rtasidagi chegarani izlamaganimiz ma’qul. Zotan, olamning obyektiv xususiyatlari va ularni voqelantiruvchi tushuncha-bilim oxir-oqibatda ongli idrok ishlovidan o‘tib, subyektiv xususiyat olishi kutilgan holdir. Boshqa tomondan esa, subyektiv kontekst ajratilganda ham hodisalarning real holatini inobatga olishiga to‘g‘ri keladi.

Dissertatsiyaning **“Badiiy mazmun shakllanishini ta’minlovchi omillar”** deb nomlangan ikkinchi bobida badiiy asar mazmuni shakllanishida ishtirok etuvchi omillarning pragmatik xususiyatlari tavsiflanib, tagma’no ifodasiga alohida e’tibor qaratilgan va matn tema-rematik tuzilishining matn mazmun qatlamini hosil qilishdagi roli dalillangan.

Badiiy asarning struktur-semantik yaxlitligi voqelikni aks ettiruvchi refentiv, modal va kommunikativ qatlamlarning o‘zaro munosabati bilan shartlanadi. Bunday munosabatlar ko‘pincha oshkora ko‘rinish olmasdan, yashirin ifoda topadi. Badiiy bayonda yashirin mazmun “matn ichidagi matn”da saqlanishi odatiy holdir. Rus tilshunosligida “yashirin matn” ma’nosini anglatadigan “podtekst” tushunchasi anchadan buyon qo‘llanib kelinmoqda (T.I. Silman, I.V. Arnold, V.A. Kuxarenko va boshqalar). O‘zbek tilshunosi M. Hakimov “yashirin matn” tushunchasini aniq anglash va to‘g‘ri tushunish maqsadida uni “tagma’no” atamasi bilan nomlashni taklif qiladi va uning fonopragmatik, stilopragmatik, metaforik, individual, ekspressiv kabi turlarini ajratadi.¹¹

Tagma’noning shakllanishi va ifoda usullari o‘ziga xos bo‘lib, u nutq konteksti va muloqot vaziyati munosabatga kirishuvi asosida paydo bo‘ladigan

¹¹ Hakimov M., Gazieva M. Prgamalingvistika asoslari. - Farg‘ona: Classic. – 2020. – B. 73.

botiniy mazmundir. Zero, nutqiy vaziyat va kontekst matn sirtqi qatlamida mavjud bo'lmagan mazmun unsurini tiklash imkonini beradi.

Ma'lumki, tagma'no badiiy matnning botiniy keskinligi va ko'pjihatligini ta'minlovchi vositalardan biridir. U turli shakllarda namoyon bo'lib, ko'plab vazifalarni bajaradi. Ijodkorlar ushbu vositadan komik va tragik holatlarni ifodalashda bir xilda foydalanadilar. Tagma'no orqali suhbatdoshlarning voqelikka kinoyali munosabati ta'kidlanadi, shuningdek, qahramonlarning dramatik ruhiyati, iztiroblari hamda muallifning ijtimoiy faolligi tasvirlanadi.

Badiiy asar matni yaxlit nutqiy tuzilma sifatida mazmun bog'liqligining yashirin va oshkora ko'rsatkichlariga ega va uning botiniy mazmuni lisoniy hamda boshqa vositalar uyg'unligida voqelanadi. Tagma'noni aniqlash muammosi asarning kompozitsiya tuzilishi bilan mustahkam aloqada. Bunda matn tuzilishini ta'minlovchi birliklar va matnning mavzuiy zanjirini hosil qiluvchi so'zlar qatori muallif his-tuyg'ulari, tafakkur kechimiga ishora qiluvchi belgilarga aylanadi.

Badiiy asar, eng avvalo, muallifning ijtimoiy faolligi mahsuli ekanligi aytiladi, ya'ni unda voqelik turli badiiy ijod usullari, shu jumladan, tagma'no vositasida o'ziga xos tarzda tasvirlanadi. Masalan, Xurshid Do'stmuhammadning "O'rmondagi kulba" hikoyasining mundarijasi turli botiniy ziddiyatlardan tashkil topgan. Dastavval, hikoyaning kompozitsion qurilishi o'ziga xos, u "Muqaddima", "Erto'lada", "Chorlov", "Kelgan kim", "Roviy so'ng so'zi", deb nomlangan qismlardan iborat. Har bir qism mazmun, konseptual markazga ega. "Muqaddima"dagi "Qara-ya, o'rmon jonga rohat baxsh etarkan-ku" degan jumla bu qismda yetakchi konsept "yolg'izlik" ekanligiga ishora qiladi. "Erto'lada" bo'limidagi "Shu yaqin o'rtada eski, kimsasiz bir kulba bor. Men uning erto'lasiga tushishim kerak", degan jumla esa, insonning eng yaqin sirdoshi o'z ko'ngli ekanligi va uni bilish, hisoblash zarurligi, aks holda qalb zax bosgan erto'laga o'xshab qolishi haqidagi konseptual mazmunni hosil qiladi.

Asarda personajlar (Ota, Ona, O'g'il) ruhiy holati tasviri birinchi o'rinda turadi, va hikoya syujeti rivojini belgilab beradi. O'g'il hayot quvonchu shodliklardan iborat deb o'ylasa, ona ana shu quvonch va qayg'ular muvozanatini saqlashdan umidvor. Ota esa yolg'izlik tarafdori, u hech kimdan madad kutmaydi. *Zax bosgan binoni ta'mirlash uning vazifasi: "Zax tuproqni selgitish uchun ancha mehnat qilish kerak. Tuynuk-derezalarni ochib, yaxshilab shamollatmasa bo'lmaydi. Hammasining eshigiga "kirish mumkin emas" deb yozilgan taxtachalavha ilib qo'yilgan. Bo'yoq qizil rangda".* Ota tilidan aytilayotgan ushbu so'zlarning tagma'nosini anglash qiyin emas. Chunki ota-erkak va oila qo'rg'oni. Demakki, zax tuproqni silg'itish uning vazifasi, qizil lavha osilgan eshikni buzib kirishga faqatgina u qodir.

Qo'shimcha ma'noni izlash harakati odatda semantik o'xshashlik, variativlik hodisalarini aniqlashga imkon beradi. Tagma'no shakllanishi jarayonida variativlik, turli sathlarga oid lisoniy birliklarning o'zaro aloqaga kirishuvi muhimdir. Tagma'no, shuningdek, matnlaro aloqalar doirasida yuzaga keladigan hodisadir, Tagma'no egasi bo'lgan matn parchasi ayni shu asarda oldinroq bayon qilingan voqea, vaziyat bilan aloqador bo'lishi badiiy ijodga xos hodisadir.

Masalan, E.Xemingueyning “Bizning davrimizda” to‘plamiga kiritilgan hikoyalar syujeti o‘zaro bog‘liq, ularda bosh qahramon Nik Adamsning axloqiy, emotsional, oilaviy kechinmalari bayon qilingan. Aynan shu sababli “Big-Riverda” (On Big-River) hikoyasini boshqa hikoyalardan boshlanadigan zanjirning yakuniy tuguni sifatida qarash mumkin. Ushbu hikoya matnida Nikning ko‘p yillar davomida qalbida to‘plangan og‘riq o‘z tasvirini topgan. To‘plamga kiritilgan boshqa hikoyalarda ham umumlashgan holda shafqatsiz olam tasvirlangan. Ushbu olamning qonun-qoidalari o‘ta shafqatsiz, har qadamda xavf-xatar hozir. Yozuvchi o‘z o‘quvchisini “bu olam har qanday kishini sindirishga” ishontirishga harakat qiladi.

“Bizning davrimizda” to‘plamida voqelikning ushbu tasviriga tassavurdagi ideal model, ya’ni tabiat qarama-qarshi qo‘yilgan. Ajoyib va sof Big-River daryosi oqayotgan zaminga qadam qo‘ygan Nik Adams tamoman boshqa dunyoda paydo bo‘ladi. Ammo Nik bu dunyoga birdaniga qadam qo‘ygani yo‘q, zero hikoya vahimali yong‘in tasviri bilan boshlanadi:

There was no town, nothing but the rails and the burned-over country. The thirteen saloons that had lined the one street of Seney had not left a trace. The foundations of the Mansion House hotel stuck up above the ground. The stone was chipped and split by, the fire. It was all that was left of the town of Seney. Even the surface had been burned off the ground.¹²

Yong‘in oqibati o‘quvchi ko‘z oldidan qayta-qayta o‘tadi: Seney was burned, the country was burned over and changed [Ibid: 208]; The burned country stopped off at the left with the range of hills [Ibid: 209].

Ko‘rimsiz peyzaj, yongan daraxtlar, kuygan tuproq, oxirigacha yonib kul bo‘lgan shahar Nikning holatiga ishora qiladi. Bularning barchasi hali o‘ziga kelib ulgurmagan Nikning hissiyotlarini tasvirlashga yordam beradi.

Olib borilgan tahlil tagma’no turli ifoda vositalariga ega hodisa ekanligidan guvohlik beradi. Tagma’no gap, abzats, alohida asar ko‘rinishidagi hikoya kabilar matnida zuhr topadi. Ammo bu holatlarning barchasida matn botinida yashiringan ma’no ma’lum bir lisoniy vositalarning kommunikativ imkoniyatlariga, ularning matn derivatsiyasidagi ishtirokiga asoslanadi. Muhimi, ushbu vositalar diskursiv faollashuv muhitida o‘zaro aloqaga kirishib, bir-birini to‘ldirib boradi.

Aktual bo‘linish hodisasining matn shakllanishidagi roli axborotning qismlararo taqsimoti hamda adresatga voqelikning uning uchun noma’lum bo‘lgan unsurlari haqidagi ma’lumotni yetkazish yoki ma’lum bo‘lgan predmet-hodisa haqidagi yangi axborotni xabar qilishda namoyon bo‘ladi. Odatda, aktual bo‘linish nutqiy tuzilma bo‘laklarining axboriy qiymati bilan belgilanadi. Axboriy qiymati pastroq bo‘lgan bo‘lak (tema) zimmasiga matn qismlarini o‘zaro bog‘lash vazifasi tushadi. Matnning mavzuiy rivoji ta’minlanadigan ushbu jarayonda “nutqiy tuzilmalar mavzularining tiklanishi va tartiblashtirilishi matn gipertemasi atrofida umumiylik va yaxlitlikni ta’minlaydi”.¹³

¹² Hemingway E. For whom the Bell Tolls. - New - York, 1986. -P. 101.

¹³ Danes F. Functional Sentence Perspective and the Organization of the Text // Papers on Functional Sentence perspective. - Prague, 1974. - P. 114.

Rema bo‘laklarining matn tuzish xususiyati, eng avvalo, muallifning ma’lum vaziyatni bayon qilishi bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Ushbu vaziyat lisoniy voqelanishida hosil bo‘ladigan matn yaxlitlik va tarqoqlik xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak. Vaziyat tasvirining yaxlit tasavvuri insonning voqelik belgi-xususiyatlarini yagona axborot manbasi sifatida idrok qilish qobiliyati bilan bog‘liq. Tarqoqlik esa, predmetga nisbatan subyektiv munosabat asosida axborot uchun muhim bo‘lgan xususiyatlarni ajrata olish qobiliyatiga bog‘liq. Bunday xususiyatlarni farqlash kommunikativ maqsad bilan shartlanadi.

Rematik axborotning matnda faollashuvi va o‘zgarishlarga uchrashini remaning bir qismdan ikkinchisiga o‘tib, tema ko‘rinishini olishida kuzatish mumkin:

I got down and went back to see Aymo and Bonello. Bonello had two sergeants of engineers on the seat of his car with him. They stiffened when I came up (E. Hemingway);

Deraza yonida qandaydir qurbaqa qurilladi, uning nag‘masidan bexos cho‘chib tushdim, so‘ng qurilloq sekin so‘ngdi va narigi binoning yuqori qavatlarida qandaydir bola chinqiriq yig‘lab yubordi.

Izidan ayol kishining zardali ovozi eshitildi. Bola esa allamahalgacha o‘ksib-o‘ksib yotdi. Shunda matnning xayolimga-bola uzoqlarda, mening o‘tmishimda yig‘layotgandir-degan o‘y kelib qoldi (Eshonqul. Yalpiz hidi: 163).

Remaning temaga o‘tishi bayonning keyingi qismida avval yangi deb baholangan axborot endilikda ma’lumga aylanganidan va undan muallif axborotning navbatdagi parchasini yetkazishda foydalanayotganidan darak beradi.

Xuddi shunday jarayon gipertema bir nechta yo‘nalishlarda rivojlanib, bir necha tobe temalar hosil bo‘lishida ham kuzatiladi:

We went down the north side of the embankment. I looked back. Aymo lay in the mud with the angle of the embankment (E.Hemingway);

Tun mening inim. Tunlari ko‘ksimda hasrat qozoni qaynaydi. Tun-mening umrim. Ko‘rshapalakday faqat tunlarigina xayolimga era beraman (N.Eshonqul. Yalpiz hidi).

Remaning bir qismi ma’lum matn qismida faollashmasdan qoladi va ushbu “axborot qoldig‘i” keyingi matn parchasida shaklan ifoda topmaydi:

I hadn’t had coffee away from home in a long time. It wasn’t very good. It didn’t taste like coffee at all but it was hot and I spilled some on my shirt, so know it was also brown (J. Steinbeck).

Mazkur holatlarda matn parchasining umumiy tuzilishdan joy olishiga dastavval mavzu rivojining grammatik ko‘rsatkichlari bunga imkon beradi. Jumladan, yuqorida keltirilgan parchada I va coffee birliklari vositasidagi mavzu rivojidan tashqari, hot, brown sifatlari ham rema yetakchiligini ta’minlamoqda.

Tahlil qilingan rematik bo‘laklarning matnda faollashuvi bilan bog‘liq holatlar ularning, tema bo‘laklari bilan hamrohlikda, matn derivatsiyasida muhim rolni o‘tashidan guvohlik beradi. Bunda rema faol axborotning matnda taqsimlanishini ta’minlabgina qolmasdan, balki uning tartibotli nutqiy tuzilma sifatida ko‘rinish olishiga ham o‘z ulushini qo‘shadi.

Amerikalik tilshunoslarning kuzatishlaricha, nutqiy tuzilmaning pragmatik strukturasi soʻzlovchining “qiziqish nuqtasi”ga tobedir. Zero, soʻzlovchi u yoki bu vaziyatda axborotning qaysi qismining pragmatik qiymati yuqori ekanligini tanlaydi va shunga bogʻliq holda leksik-grammatik, uslubiy vositalardan foydalanadi. Axborotning muhimligini taʼkidlovchi guruh nutqiy tuzilmaning “pragmatik choʻqqisi”, deb ataladi.¹⁴

Pragmatik choʻqqini hosil qiluvchi vositalar turli tillarda turli koʻrinishlarga ega boʻlishi mumkin. Masalan, ingliz tilida bu vazifaning bajarilishi koʻproq gapdagi soʻz tartibi bilan bogʻliq. Oʻzbek tilida esa soʻz tartibining ahamiyati unchalik darajada emas. Zero, gapning kommunikativ yadrosini kesim tashkil etadi.

Axborotning tema-rema munosabati doirasida taqsimlanishini diskursiv faoliyatni yuritish usullaridan biri sifatida qarayotib, diskursiv vazifani voqelantirish qobiliyati matn yaratilishini taʼminlovchi omillardan biri ekanligini unutmaslik lozim. Ushbu vositalar turli-tuman boʻlishi bilan bir qatorda, vazifalari ham oʻzgarib turishi mumkin. Masalan, topiklashtirilayotgan payt holi boʻlagi bir paytning oʻzida “eski” va “yangi” axborotni ifodalashi kuzatilib turadi:

When we got through that I volunteered to wash dishes (Lawrence. Sons and Lovers: 261).

Ushbu gapda payt holi the that koʻrsatish olmoshi qoʻllanishida avval “eski” axborotni maʼlum qilsa, keyin esa harakatning turganligi haqidagi “yangi” maʼlumotni yetkazmoqda.

When bogʻlovchisi bajaradigan bu xildagi vazifa oʻzbek tilida koʻpincha morfologik qoʻshimchalar zimmasi tushadi:

Uyga kirganimda opam hamisha mushuk boladay erkalatadigan, aytgani aytgan, degani-degan arzanda ukam nasibasini olgan shekilli hiqqilab oʻtirardi (Ulkanboeva. Olvoli: 141).¹⁵

Nutqiy tuzilma namunasi boʻlgan matnning tarkib topishida muallif (soʻzlovchi)ning maqsadi muhimdir. Shu sabab, matn hodisasining kognitiv-pragmatik tahlilida uning tarkibidagi birliklarning sistem va formal munosabatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Badiiy tasvirning pragmatik moʻljali matnning struktur tuzilishi va uni shakllantiruvchi lisoniy birliklar tanloviga hamda matn qismlari joylashuviga bogʻliq. Matn qismlari joylashuvi va ularning oʻzaro bogʻlanishini aks ettiruvchi struktur tuzilishda muallif moʻljali voqea- hodisalar bayoni bilan bir qatorda, personajlar portreti oʻrin egallaydi. Bunday tasvirda portret tasviri, odatda ikki xil koʻrinish oladi. Bularidan birinchisida tasvir matn davomida qayta takrorlanmasa, ikkinchisida esa, tasvir kengaytirilgan tus oladi va matnning keyingi qismida davom etishi mumkin. Qizigʻi, tasvirning har bir parchasida muallifning qahramonga nisbatan munosabati oʻzgarib borishi kuzatiladi. Umuman, inson qiyofasidagi biron-bir belgini alohida taʼkidlab koʻrsatish muallifning ixtiyorida.

¹⁴ Ван Валин Р., Фоли У. Референциально - ролевая грамматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XX. -М.: Прогресс, 1982. - С. 389.

¹⁵ Ulkanboeva Matlyuba. Olvoli. Hikoya // Sharq Yulduzi, 2014. 6 - son. - B. 141-143.

Masalan:

Mr. Carraway, this my friend Mr. Wolfs helm; A small, flet - nosed Jew raised his large head and regarded me with two fine growths if hair which luxuriated in either nostril. After a moment I discovered his tiny eyes in the half darkness.... "What?" I inquired politely. But evidently he was not addressing me, for he dropped my hand and covered Gatsby with his expressive nose (F.S.Fitzgerald).

Hosila haqida men deyarli har kecha o'ylayman. Uni o'ylashim bilan ko'z oldimga birinchi bor uchratgan andak hurkak, anday o'ychan, lekin ko'zlari doimo mavjlanib sochidan umid va baxtning isi anqib turadigan navnihol qiz keladi (Eshonqul. Yalpiz hidi: 172).

Mazkur matn parchalarining struktur aloqasi personajning ilk bor eslatilgan xususiyatlarining qayta takrorlanishiga asoslanmoqda. Bu o'rinda nutqiy tuzilmaning muhim ko'rsatkichi bo'lgan lisoniy tanlov harakatiga duch kelamiz. Keltirilgan parchalarning mazmuni qaysi bir jihatidan muvofiq kelsa-da, biroq bu mutanosiblik zamirida lug'aviy sinonimiya emas, balki perefraza amali turadi. Boshqacha aytganda, variantlar tanlovi iboralar turli-tumanligiga asoslanadi, denotat esa o'zgarmaydi.

Qiyoslang:

thick chin	→	heavy jaws
he had flaming cooper hair	→	a red haired man
his hair literally gushed from his head	→	a red haired man
he walked on a wooden	→	leg the handicap of a wooden leg

3-rasm. Matnda ifodalangan belgilarning farqlovchi belgilari

Personajlar tashqi qiyofasi tasviri pragmatik maqsadga yo'naltirilganda muallif lisoniy vositalar tanlovi, ularni tartibli joylashtirish faoliyatini o'z dunyoqarashiga moslashtirishga harakat qiladi. Bunda ijodiy yondashuv sharoitida estetik qadriyatlar ma'lum bir obraz rivojining mantiqiy rivoji bilan bog'liq qonuniyatlarga amal qilishi lozim. Portret tasviri nutq subyektining munosabati bilan bog'liq. Ushbu rolni esa nafaqat yozuvchi-muallif, balki asar personajlari ham bajarishi mumkin.

Bir kuni idoraga kelsam, Nozima o'rnida yo'q, - yo'lga tikilganча, davom etdi. Narzilla, - Xonadagi qizlar g'alati qarashdi. Keyinroq kelarman, deb tashqariga chiqdim. Lotok-ariqdan sakrab o'tayotgandim. Elkamga bironing qo'li kelib tushdi. Kuchsiz qo'l urgandek, chimchilagandek bo'ldi. Orqamga o'girilib, dahshatdan haykaldek qotib qoldim. Yuragim orqaga tortib, kalovlandim. Oq nuqtalari bor belburma qizil ko'ylakli ayol hissiz ko'zlari bilan tikilib turardi. Labi shishib, do'rdayib qolgan. Ko'zlarining atrofi, qavoqlari ko'kargan. Yonoqlaridagi qontalash jarohatlar uni rosa do'pposlashganidek dalolat berib


tutardi. Xudo ursin agar, shu paytda bu yoqimsiz basharani tanimdim....tanidim. Bu Nozima edi! U ta'na va g'azab bilan qarab turardi (Raximov. Yo'lovchila: 35).

Yuqoridagi parchalarda portret tasviri personajlar nutqida berilgan. Dialog ko'inishida bu nutq spontanligi, vaziyat bilan bog'liqligi, adresatga yo'naltirilganligi va subyektivligi bilan ajralib turadi. Bunday holatda voqelikning inson tafakkurida ikkilamchi aks topishiga duch kelamiz. Oqibatda, bajariladigan vazifa ham juftlashadi: bunday tasvir, birinchidan, personaj qiyofasi yaxlit tasvirining bir qismi bo'lsa, ikkinchidan, nutq subyektining munosabatiga ishora qiladi. Shu asnoda, muallif va tasvir obykti o'rtasidagi aloqa doirasiga asar personajining munosabati ham "suqilib" kiradi. Bu esa, so'zsiz, "dialogik" portretning pragmatik mo'ljalini o'zgartiradi.

Uslubshunoslar badiiy bayonning turli ko'inishlari mavjudligini e'tirof etadilar. Binobarin, muallif va narrativ munosabati ko'lamida to'rtta kompozitsion-stilistik tur farqlanadi:

- 1) matnda narrativ-hikoya qiluvchi eslatilmaydi va stilistik ta'kidlanmaydi;
- 2) narrativ eslatilsa-da, biroq stilistik ta'kidlanmasdan qoladi;
- 3) narrativ eslatilmaydi, lekin lug'aviy vositalar, ekspressiv sintaksis yordamida ta'kidlanadi;
- 4) narrativ eslatilib stilistik jihatdan ham ta'kidlanadi [ОДИНЦОВА 1987: 167].

Muallif va narrativ munosabat ko'lamida farqlangan to'rtta kompozitsion-stilistik turning o'zaro nisbati quyidagi ko'inishga ega:



4-rasm. Kompozitsion-stilistik turlarning o'zaro munosabati doirasida yuzaga keladigan holatlar.

Hikoya qiluvchi shaxs tasviri muallif bayonining personaj nutqiga ko'chishida ma'lum darajada to'ldiriladi. Chunki bu sharoitda berilayotgan baho so'zlovchi nuqtai-nazaridan voqelikka mos keladi. Bunda Fitjerald o'ziga xos bayon uslubiga murojaat qiladi. Asar qahramonlari bo'lgan Kollin, Dollin va Katrin o'rmonga ketib qolishadi va tadbirkor Rits ularni izlash haqida teleramma

jo'natadi. Ushbu telegrammada Kollnizning tashqi ko'rinishi quyidagicha tasvirlanadi:

Be on look out for following persons travelling together... Collin Fenwick, white, age 16, looks younger height 5 feet, blond, grey eys, then, bad posture, scar at corner of mouth, surly natured (Fitzgerald. The Great Gatsby).

Asarda telegramma matnning keltirilishi natijasida qochoqlarga berilayotgan baho hikoya qiluvchi shaxs lingvokognitiv faoliyati doirasidan chetga chiqariladi.

Shunday qilib, personajlar qiyofasining badiiy tasvirini berish murakkab lingvokognitiv jarayondir. Zero, bu xildagi tasvir bir nechta bosqichli hissiy-ratsional harakatlar natijasidir. Birinchi bosqichda emotsional mo'ljal olinsa, ikkinchisida mo'ljaldagi shaxs yoki obyektga baho beriladi. Uchinchi bosqichda esa, berilgan bahoga nisbatan munosabat paydo bo'ladi va u qoniqarli yoki qoniqarsiz bo'lishi mumkin. Nihoyat, oxirgi bosqichda bayon qilinayotgan tasvirga o'quvchining munosabati ham qo'shiladi.¹⁶

Dissertatsiyaning "**Badiiy diskurs tarkibi va mazmun tuzilishining kognitiv - pragmatik ko'rsatkichlari**" deb nomlangan uchinchi bobida badiiy diskursning kognitiv-pragmatik ko'rsatkichlari ajratilib, ushbu ko'rsatkichlar qatorida zamon shakllari bilan birgalikda, boshqa temporal belgilarning hamda mantiqiy-semantik assotsiativ bog'lamlarning alohida ahamiyatga molikligi ochib berilgan.

Diskurs tuzilishini o'rganishida uning tarkibiy bo'laklarini ajratish lozim. Olimlarning ta'kidicha, axborot saqlanishini ta'minlovchi asosiy birlik propozitsiyadir. Propozitsiya voqelikda kechayotgan voqea-hodisani kodlashtirganligi sababli diskursni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi.

Oqilona tuzilgan va ongda aks topgan narrativ diskurs bir paytning o'zida chiziqli va pog'onali strukturaga ega bo'ladi. Chiziqli tuzilish barcha turdagi matnlarda temporal ko'rsatkichlarda aks topsa, matnning pog'onali tuzilishi esa ko'p jihatdan uning qaysi janrga oidligiga bog'liq.

Diskurs tuzilishidagi zamon yaxlitligi, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, odatda zamon holining kiritilishida namoyon bo'ladi.¹⁷ Mazkur vazifani ko'pincha gap boshida turadigan ravish bajaradi. Bunday tarkibli gaplar odatda matn yoki abzatsning boshlanishidan joy oladi va shu ko'rinishda shakl oladigan tuzilmalar zanjiri matnning kogerentligini ta'minlaydi.

Zamon ko'rsatkichlari davomiyligi matnda tasvirlanayotgan voqealar ketma-ketligini aks ettiradi. Bu jihatdan, ayniqsa, o'tgan zamon shakllarining takrorlanishi matnning temporal yaxlitligini shakllantiruvchi vosita ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan:

Fuses of graduated lengths were cut and attached. A match flared in darkness, startling in its harsh illumination of Denny's palehard face, his own shaking hands. Then the first fuse spluttered (Cronin. The Cifadel).

¹⁶ Бахтин М.М. Время и пространство в рамках художественной литературы// Вопросы литературы, 1974. № 3. - С. 31-32.

¹⁷ Kehler A. Temporal relations: Reference or discourse coherence? // Proceedings of the 32 nd Conference of the association for Computational Linguistics. - New Mexico State University, 1994. -P. 319-321.

Ushbu matn parchasida then ravishi bilan ifodalangan zamon holi bayon qilinayotgan voqealar ketma-ketligiga ishora qilmoqda. Hol bo‘lagining tushurib qoldirilishi gapning grammatik tuzilishini buzmasa-da, lekin matnning oldingi qismi bilan bo‘lgan bog‘lanish zaiflashadi.

Xuddi shunday holatni o‘zbek tili misolida ham kuzatamiz:

“U Muazzamni uch kundan so‘ng yana o‘sha qamish chayla oldida uchratdi. Shunday, qo‘shiqchi juvonning oti Muazzam edi, u endigina yigirma beshga kirgan, muallimlar bilim yurtini tugatgan-lekin orada bola bo‘lib qolgani va Otaqulni sovxozning chekkasiga brigadir qilib tayinlaganliklari uchun ishga o‘rnashib olmagan, mana ikki yildan beri olti-yetti oyi shu erda, ko‘rimsiz chaylada o‘tar edi” (N.Eshonqul. Yalpiz hidi: 126).

Matn tuzilishida tarkibiy qismlarning tartiboti muhim ekanligi bois, nopredikativ guruhni tashkil qiluvchi birliklar (ergash gap, sifat-dosh tuzilmalari kabilar) matnning temporal kogerentligini ta‘minlash bilan bir qatorda, umumiy mazmun bog‘lanishlari vositasiga ham aylanadi.

A wealthy banker, prominent in his church, a philanthropist, a man respected by all, not only for his connections, but also for his upright character, he was arrested one day on a charge of fraud and the dishonesty which the trial brought to light was not the sort of which could be explained by a sudden temptation if it was deliberate and systematic. Arnold Jackson was a rogue. When he was sent to the penitentiary for seven years there were few who did not think he had escaped lightly (Maugham. Pain: 17).

Bu erda vaqt ergash gapi (When he was sent to the penitentiary for seven years) matnning oldingi qismi bilan yagona bir mavzusi-Arnold Jacksonga berilayotgan ta‘rif orqali bog‘langan.

Orqa o‘rinda turadigan ergash gap esa faqat bosh gap bilan bog‘lanib, bir sintaktik tuzilma tarkibida ikkita voqeaning ketma-ketligini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi:

It was evening in Ithaca when Homer finally drew up in front of the telegraph office (Maugham. The Human Comedy: 16).

Bir kuni kichik akam ko‘chadan hamma yog‘i shalabbo bo‘lib keldi, bolalar bilan konkusda yaxmalak uchayotgan ekan, sirpanib muzning yorig‘idan anhora tushib ketibdi.¹⁸

Diskurs jarayonida til tizimi birliklarining o‘zaro munosabati va integratsiyasi kognitiv-pragmatik maydon doirasida kechadi. Turli sathlarga oid birliklar yagona kommunikativ maqsad atrofida birikadi. Zamon shakllari morfologik sath birligi ekanligi ma‘lum, biroq ular matn tarkibida boshqacha vazifa bajarishga qodir. Ularning grammatik ma‘nosi boshqa sathlar birliklariga xos qo‘shimcha ma‘nolar hisobidan kengayadi.

Ekspressivlik va emotsionallik shunday qo‘shimcha ma‘nolar safiga kiradi. Lisoniy vositalarning ekspressivlikni ifodalash vazifasi belgi va harakatlarning yangiligi, darajalanishini ta‘kidlash orqali tinglovchi ruhiyati, hatti-harakatiga

¹⁸ Hoshimov O‘tkir. Dunyoning ishlari. - T., 2019. - B. 75.

ta'sir o'tkazishda namoyon bo'ladi. Bunday vazifalar bajarilishini badiiy matnda davomli harakatni ifodalovchi zamon shakllari faollashuvida ham uchratamiz.

Umuman, ekspressivlik ma'lum modallik qiymatiga ega fe'l shakllari ishtirokidagi diskursiv faoliyatda tez-tez uchraydigan holatdir.

Qiyoslang:

1. Geoffrey: Go then! I've finished with you....

They'll take you to court you know!

I won't stop then! I'm not paying it back:

And don't think you are taking my suitcase!

2. He'll finish up on his bloody ear -hole. I'm not having him staying out half the night. Not at his age.

3. I'm not having you gallivanting round at all hours, not at your bloody age.

Billy: Who are you having gallivanting around then?

Geoffrey: I'm not having any of your bloody lip. I'll tell you that, for a start (Water house, W. Hall: 216).

Ravshanki, Jeoffrining barcha replikalarida inkor tuzilmalaridagi davomli harakat shakllari modal mazmunning ifoda vositasi vazifasini o'tmoqda. Ko'zlanayotgan kommunikativ maqsad tushunarli: adresatni, uning hatti-harakatlarini salbiy baholash orqali, o'ziga bo'ysundirish. Bu erda ekspressiv emotsional baho yetakchilik qilmoqda.

Diskursning mavzuiy va temporal yaxlitligini ta'minlashda harakatning makon-zamon ko'rsatkichlari ishtirokini izohlovchi misollar tahlili ularning ushbu vazifa voqelanishida muhim o'zni egallashidan guvohlik beradi. Mazkur vositalarning ko'rsatilgan diskursiv vazifa bajarilishidagi imkoniyatlari matn ijodi sharoitida pragmatik unsurlar tanlovini belgilovchi omillardandir.

Matn, har qanday boshqa diskursiv tuzilma kabi, uni yaratuvchi muallifga hos assotsiatsiyativ bog'lamlardan iborat bo'ladi. Boshqa tomondan, matn tushunarli bo'lishi uchun ma'lum darajada uni qabul qiluvchi-retseptent assotsiyativ bog'lamlariga mos yoki hozirjavob bo'lishi darkor. Ushbu ikki turdagi assotsiyativ bog'lamlarning o'zaro kesishuvi va qorishuvi matnning assotsiyativ tezaurusini tashkil qiladi. Demak, assotsiyativ tezaurus matnning hosil bo'lishi hamda idrok etilish sharoitlari uyg'unligini taqozo etadi.

Badiiy matnlarga assotsiyativ bog'lanishlarning murakkab strukturalari hos bo'lib, ular har xil tamoyillar faollashuvida shakl oladi. Bunday murakkablik quyidagilar zahirida tarkib topadi: 1) assotsiyativ qatorlarning turli ko'rinishga ega bo'lishi; 2) assotsiyativ qatorlar bajaradigan vazifalarning turli-tumanligi va o'ziga xosligi; 3) assotsiyativ qatorlarning miqdori chegaralanmaganligi.

Qiyoslang:

And all the time I was wondering who he was. I didn't know him from Adam; I couldn't recall him a bit. I don't mean that my memory is weak. On the contrary, it is singularly tenacious. True, I find it very hard to remember people's names; very often, too it is hard for me to recall a face, and frequently I fail to recall a person's appearance, and of course clothes are a thing one doesn't notice. But apart from these details I never forget anybody, and I am proud of it. But when it does

happen that a name or face wscapes me I never lose my presence of mind. I know just how to deal with situation (Leacock. My Unknown friend: 99).

Taxta, kafan, tobut, go‘r... Murda lahadga qo‘yilib go‘rga tuproq toritayotgan vaqtda, taomilga ko‘ra kimdir xalqqa yuzlanib:

Ho, yaxshilar, marhum qanday odam edi? - dedi.

Hech kimdan sado chiqmadi. Shunda marhumdan ko‘p aziyat chekkan biri kishi:

- Poraxo‘r edi! - deb yubordi.

Shu chog‘ qabrga tortilayotgan tuproq birdan to‘zib ko‘kka ko‘tarildi-yu, uning ostidan boyagi murda kafanini sudrab ko‘zlarini katta ochib chiqib keldi....

- Nima? Pora? Qani pora? - dedi.

U kishi shoshib u yoq-bu yoqqa qaradi: Qarasa, besh-olti odim narida bir kirpi yotibdi, yugurib borib kirpini oldi-yu:

Mana pora! - deb ikki qo‘llab murdaga tutdi. Murda kirpini shoshib oldi, qaltiragan qo‘llari bilan og‘ziga eltib, ko‘pdan beri pora o‘tmay bitib ketgan tamog‘ini ochish, kattaroq ochish uchun kirpini teskari yutdi.

Falonchaga pora deb bersang tirik kirpini teskari yutadi, degan gap mana shundan qolgan (Abdulla Qahhor. Pora: 70).

Nasriy janrdagi badiiy matnlarda yetakchi o‘rin leksik va sintaktik assotsiativ qatorlarga tegishli bo‘lishi aniq. Ushbu janrda fonetik assotsiatsiyalar o‘ta kam miqdorda uchraydi, morfologik xususiyatli assotsiyasiya esa ko‘pincha leksik qatorga hamkorlik qiladi.

Tahlil uchun E. Hemingvey “The Old Man at the Bridge” nomli hikoyasini tanladik. Ushbu hikoyaning assotsiativ tezaurusida dusty, old man, bridge, animals, artillery birliklari takrori alohida o‘rinni egallaydi. Ushbu birliklarning matnda joylashuvini kuzatayotib, dusty va bridge elementlarining asosan matnning birinchi qismida uchrashining guvohi bo‘lamiz. Animals va artillery elementlari matnning ikkinchi qismida joylashgan bo‘lib, old man qatori esa butun matn bo‘ylab tarqalgan. Sanab o‘tilgan elementlarning mikrokontekstlar bo‘yicha taqsimoti ham bir xil emas. Binbarin, old man assotsiativ qatori barcha kontekstlar uchun muhim bo‘lsa, animals artillery qatorining faollashuvi alohida ko‘rinishdagi kontekst bilan chegaralangan. Dust va bridge elementlarga tegishli assotsiativ qatorlar esa o‘rtaliq pozsiyani egallaydi. Buni biz quyidagi assotsiativ birikuvlarda kuzatishimiz mumkin:

(very) dusty (clothes) - (because of the) artillery;

(ankle) dust - (because of the) artillery;

(black) dusty (clothes) - (under the) artillery;

(in the) dust - (because of the) artillery.

Old man, dusty va bridge qatorlari kontekstual aloqalarining hikoya matni tuzilishidagi muhimligi ularning ot va fe‘l turkumlariga taalluqli turli birliklar bilan birikishining matnda bayon qilinayotgan voqelik tasvirida alohida o‘rin egallashidan darak beradi. Ushbu assotsiativ qatorlar matn tezaurusiga makon tafsilotlarini tavsiflash tamoyilni jalb qiladi. Tezaurusning makon tamoyili hamrohlik qilayotgan morfologik xarakterdagi assotsiativ qator birliklari vositasida

qo‘llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, across-from-beyond-over makonga ishora qiluvchi predloglar qatori shu vazifani bajaradi.

Umuman, dusty, old man, bridge guruhidagi assotsiativ qatorlar matnda lisoniy vositalarining obraz yaratish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Zotan, matnning birinchi qismida asosan real voqelikka tegishli obrazlar qayta yaratilib, ular vositasida g‘ayrilisoniy hodisalarning ma‘no-mazmuni anglashiniladi. Hikoyaning ushbu qismini o‘qiyotib, biz ko‘prikda kechayotgan harakatlarni kuzatayotgan ofitserning kechinmalarini tasavvur qilamiz.

Badiiy matnning mazmun va struktur jihatdan yaxlit tuzilish olishida sintaktik assotsiatsiyalar ham o‘z ulushiga ega ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim. Masalan, shu nuqtai nazardan Abdulla Qahhorning yaqinda nashr qilingan “Muhabbat” nomli to‘plamiga kiritilgan “Ko‘zacha” hikoyasi matnida undov gaplari qatori qanday vazifa bajarishiga e‘tibor qaratmoqchimiz. Hikoyaning syujeti oddiy: yangi ishga tayinlanib, yangi uyga ko‘chayotgan To‘raqulov ikkita tashlandiq ko‘zachani ko‘tarib ketayotganida choyxona oldida, yangi ishxonasi xodimlari semiz va oriq Nazarovlarni uchratib qoladi. Xushomadni joyiga qo‘yadigan semiz Nazarov ko‘zachani “Asil mol! Didingizga qoyilman!... bunaqa molni taniydigan, qadriga etadigan odam hozirgi zamonda bitta”, deb maqtasa, oriq Nazarov qo‘shib qo‘yadi: “Yuz mingtadan bitta!”.

Maqtov nutqiy aktini bajaruvchi sintaktik tuzilmalar assotsiativ qatori davom etadi:

- Hunardmandlar ham o‘lmasin!
- Hunarmandni hunarmand qilgan hunar emas, Vahobjon akamlarday didli, zarshunos odamlar!
- Qornidagi suratni ko‘ringlar, qo‘tas desang cho‘chqaga o‘xshaydi, cho‘chqa desang qo‘tasga o‘xshaydi.
- To‘g‘ri! Bu, albatta, rassomning kamchiligi, lekin rassomning kamchiligi ko‘zachaga husn bo‘lib tushgan! O‘ziga yarashadi!...

Keltirilgan undov gaplar assotsiativ qatori hikoyaning asosiy g‘oyasi, ya‘ni xushomadgo‘ylikning nojo‘ya xislat ekanligini ta‘kidlash uchun xizmat qilgan.

M.Baxtin “xronotop” tushunchasi zamon va makonni uyg‘un holatda ifodalashini aytayotib, xronotipni adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilish maslahatini beradi. Olimning uqtirishicha, adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun va aniq idrok etish mumkin. Bu erda vaqt tig‘izlashadi, badiiy nigohga aylanadi, makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi, hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda ko‘rinsa, makon zamonda o‘lchanadi va anglanadi. Bunday qorishiq alomatlar oqimida badiiy xronotop tabiati namoyon bo‘ladi.¹⁹

Fikrimizcha, xuddi shu alomatlar romandan boshqa janrlarga ham xosdir. Zero, makon va zamon qorishuvisiz biror bir diskursiv faoliyatni tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Ijtimoiylik xususiyati har qanday diskursga xosdir, chunki u tabiatan insonlar muloqotiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Voqealar jarayonida muallif, o‘z kognitiv imkoniyatlarini ishga solib, eng avvalo estetik kommunikatsiyani

¹⁹ Baxtin M.M. Romanda zamon va makon xronotop shakllari. - T.: Akademnashr, 2015. - B. 43-44.

ta'minlashga harakat qiladi. Ushbu estetik samaraga erishish niyati muallifni hech qachon tark etmaydi.

Xronotop munosabatlari va ularning lisoniy ifoda vositalari faollashuvini ingliz shoiri L. Maknisning "Sunday Morning" hamda o'zbek shoiri Azim Suyunning "Sog'inch" nomli she'rlari misolida tahlil qilib ko'ramiz. Ushbu she'rlarning tahlil uchun tanlovi ma'lum sabablarga ega: birinchidan, ularda shakl va mazmun mosligi seziladi, ikkinchidan, ularning har ikkalasida ham mazmun ifodasi va shakl tuzilishida yetakchi o'rinni sarlovha egallaydi.

Ushbu matnlarda temporallik funksional-semantik maydoni markazini zamon shakllari tashkil qiladi. Hozirgi zamon matn grammatik tuzilishida yetakchilik qiladi.

Ushbu zamon shakli uchun real vaqt oralig'idan tashqarida bo'lish, harakatning bir martaligi, lug'aviy ifodaga ega emaslik kabi xususiyatlar hosdir. L. Maknisning she'rida ushbu shakldan butun matn ko'lamida foydalanilgan. "Hozirgi davomlilik" shakli vositasida harakat ma'lum makonga joylashtirilgan:

Down the rood someone is practicing scales...

Biroq, keyingi qatordagi man so'zining lug'atda universals sxemasiga ega ekanligi qayd etilgan va uning qo'llanilishi oqibatida harakat joylashuvida siljishlar yuzaga keladi.

Azim Suyunning she'rida esa holat biroz boshqacharoq. Ushbu matnda ham hozir zamon davomiylik tusi ustunlik qilsa-da, lekin she'ning yakunida u kelasi zamon mazmunini ola boshlaydi. Bunga erishish uchun muallif maxsus vositalarga murojaat qiladi: "ketgum tog'larga", "ketgumdir tashlab", "yuzlarimni yuvgum" va hokazo.

Har holda, har ikkala she'r matnida ikkita zamon-makon hududlarining to'qnashuvi yuzaga kelgani ko'rinib turibdi. "Yaqin makon" ko'lamida kechadigan bu to'qnashuvning zamon va makon sarhadlari oshkora va pinhona vositalar yordamida belglanadi. Ingliz tilidagi she'rda harakat vaqti aniq ko'rsatilgan-Sunday Morning (sarlavha presuppozitsiya xizmatini o'tamoqda). Ushbu zamon lokalizatori umumiy mazmunning markaziga aylanadi va atrofida yagona mavzuiy maydonga oid birliklar to'planadi (bular Sunday Morningning to'liq takrori va Now, this day kabilardan iborat). Ushbu holatda makon chegarasi sintaktik vositalar, beyond Hindhead tomonimi va bir tematik guruhga kiruvchi road, car leksemalari yordamida belgilangan.

"Sog'inch" she'rida sarlavha harakat va voqea kechayotgan vaqtni to'g'ridan-to'g'ri atamasa-da, lekin she'ning birinchi qatoridan o'rin olgan "Qish cho'zilib ketdi" qaydi vositasida bunga ishora berilmoqda. Ayniqsa, keyingi misralardagi "qaydasiz bahor?" va "Bahor kelsin, bahor kelsin" iboralari vaqt bilan bog'liq mavzuiy obrazlarning yaratilishiga turtki beradi. Hosil bo'lgan metaforik obrazlar kelgusidan umidvorlikka ishora qiladi. Chunki "charchoq hayotni" tashlab ketish uchun bahorga etishish zarur. Unda inson ko'zini yoshlamaydi va oq buloqlarga yuzini yuvadi.

"Sunday morning" she'rida now ravishi va "Sog'inch" she'ridagi "Qish juda cho'zilib ketdi" iborasi ifodalayotgan hozirgi zamon daqqiqasiga ishora qilib,

voqealar bayonining boshlang'ich nuqtasiga aylanadi. Mavzuiy maydon unsurlarining qurshovi obrazni ta'kid vositasiga aylantiradi. Masalan:

Regard these means as ends, concentrate on this Now

That you can abstract this day and make it to the week of time...

Sog'indim ko'klamni, so'lg'indir ruhim....

Bunday tasvirlar natijasida "hozir" vaqt kechishining umumiy oqimidan ajratib olinadi va hozirgi va kelgusi harakatlar yaxlitlashishi kuzatiladi. Ayni paytda, masalan, ingliz tilidagi she'rda small sternity sarlavhadagi Sunday morning iborasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi. Bu esa, kelajak bilan aloqa, umumiylik va abadiylik semalarining faollashuviga olib keladi.

XULOSA

1. Badiiy diskurs kognitiv-pragmatik tahlili jarayonida matnga murojaat qilish zarurati tug'iladi, chunki aynan matn tilning asosiy kommunikativ birligidir. Muloqot ishtirokchilarining tafakkur faoliyati va nutqiy harakatlari diskurs sharoitida, matn doirasida o'zaro birikadi. Uzatilayotgan axborot matnda lisoniy ko'rinishda voqelanadi va muloqot samarasi uchun zarur bo'lgan shaklni oladi.

2. Badiiy matnni uning yaratilishi, idroki, tushunilishi jarayonini qamrab oluvchi harakatchan hodisa, ya'ni diskurs sifatida o'rganilishi diskursiv tahlil usulining shakllanishiga turtki berdi. Ushbu usul tatbiqida nafaqat lisoniy, balki pragmatik omillarni ham aniqlash imkoni paydo bo'ladi. Mazkur tadqiqotimizda diskurs lisoniy hodisa bo'lgan matndan tashqari, matnni tushunish uchun zarur bo'lgan olam haqida bilim, adresatning maqsadi va mo'ljali kabilarga asoslangan nolisoniy omillarni o'z ichiga oladigan murakkab tuzilishdagi kommunikativ hodisa maqomida talqin qilingan.

3. Olib borilgan tahlillar badiiy diskursni muallif shaxsiyatiga xos konseptlarni voqelantiruvchi vositalar tizimi sifatida anglashga undaydi. Muallif ijodi muhitida lisonidan o'z kommunikativ maqsadiga mos ravishda foydalanadi. Shu bois, badiiy diskurs ham pragmatik jihatdan shartlangan va ma'lum maqsadga mo'ljallangan nutqiy faoliyat ekanligiga gumon yo'q.

4. Badiiy matn muallifining maqsadi dastavval adresat hissiyotlariga ta'sir o'tkazishdan iborat bo'lsa, undan keyin uning axborot boyligini oshirish va baho tizimi imkoniyatlarini kengaytirishga hamda badiiy mazmun ifodasiga yo'naltiriladi. Bunday maqsadga mavzuga oid konseptlarni o'quvchi konseptual tizimiga singdirish orqali erishiladi.

5. O'zbek va ingliz tillaridagi badiiy asarlardan olingan misollar tahlili nutqiy muloqot jarayonida ma'nolarni ifodalash bilan bog'liq me'yorlar talablariga amal qilish lozimligi haqidagi farazni tasdiqlaydi. Tahlil jarayonida propozitsiyalar katta qismining ma'nosi nutqiy tuzilma shakli va so'zlovchi ko'zlayotgan mo'ljali asosida belgilanadi. Propozitsiya ma'nosi to'liq hajmda faqat adresat idrokiga moslashish sharoitida faollashadi. Muallif murojaat qilayotgan referensiyaning ma'lum bir qismi o'quvchida u yoki bu his - tuyg'u, emotsiyani uyg'otish uchun xizmat qiladi.

6. Zamon-makon munosabatlarining matn tarkibida faollashuvi bilan bog‘liq holatlarning diskursiv-pragmatik tahlili ushbu munosabatlarni voqelantiruvchi vositalarning axborotni oldga surish vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy diskurs matnini shakllantirishga yo‘naltirilgan pragmatik vositalar tanloviga bevosita ta‘sir o‘tkazadi.

7. Matnning diskursiv-pragmatik ko‘rsatkichlari turli-tumanligi va ko‘p jihatligi bilan ajralib turadi. Ushbu jihatlarni o‘rganish davomida ularning propozitsiya lisoniy voqelanishida namoyon bo‘ladigan imkoniyatlari aniqlanadi. Aniqlangan referensiya turlari, presuppozitsiya, implikatura kabi pragmatik omillar va matnning temporal yaxlitligi, axborotning oldga surilishi, mavzuiy yaxlitlik kabi diskursiv omillar harakatning ma‘lum zamon doirasida makonlashuvini ta‘minlaydi.

8. Matnda axborotning tema-rematik zanjir ko‘rinishidagi taqsimoti diskurs tuzilishida foydalaniladigan strategiyalardan eng muhimidir. Ushbu strategiya tanlovi orqali matnning mazmun va temporal yaxlitligiga erishiladi. Tadqiqot jarayonida ma‘lum bo‘lishicha, tema-rema bog‘lamini hosil qiluvchi lisoniy va pragmatik vositalar mo‘ljaldagi kommunikativ vazifani bajarish imkonini yaratadi.

9. Matnning mazmuni murakkab tuzilma ekanligi uning kommunikativ-pragmatik mohiyatida namoyon bo‘ladi. Matnning funksional-semantik tabiati formal, mazmun va kommunikativ xususiyatlar umumlashmasida shakl oladi. Funksional-semantik maydonning ko‘psathli tuzilishi (bunda lisoniy va nolisoniy vositalar o‘zaro munosabatga kirishadi) matnning illokutiv imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

10. Biz tilni axborotni voqelantirish va uzatish vazifasini bajaruvchi lisoniy belgilar tizimidan iborat kognitiv hodisa sifatida talqin qilish tarafdorimiz. Biroq uning kognitiv imkoniyatlari faqat muloqot muhitida namoyon bo‘ladi. Buni tahlilga jalb qilingan badiiy asarlar matnida ham kuzatish mumkin. Ulardagi voqealar bayonida o‘quvchining diqqatini turli ruhiy holatlarga, ijtimoiy qarama-qarshiliklarga jalb qilish nazarda tutilgan.

11. Mazkur ishda muhokama qilingan muammolar borasida bildirilgan fikr-mulohazalar kelgusida rejalashtiriladigan kognitiv-pragmatik yo‘nalishdagi tadqiqotlar rivojiga turtki berishiga ishonsa bo‘ladi. Zotan, kognitiv tilshunoslik va pragmalingsvistika doirasida shakllangan tahlil usullaridan yagona maqsad sari foydalanish tilning insonlararo muloqot muhitida bajaradigan vazifasini aniqlashga sharoit tug‘diradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ШУКУРОВ УКТАМ БАХОДИРОВИЧ

**ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ
КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО СОДЕРЖАНИЯ
ХУДОЖЕСТВЕННОГО ДИСКУРСА
(на материале узбекского и английского языков)**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером B2021.4.PhD/Fil2135.

Диссертация выполнена в государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Сафаров Шахриёр Сафарович доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Хайруллаев Хуршид Зайниевич доктор филологических наук, профессор Ўсаров Иброхимжон Кўрпашаевич кандидат филологических наук, доцент
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится « 16 » июня 2023 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 61454). Адрес: 140104, г. Самарканд, улица Бустонсарой, 93. Тел.: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан « 06 » июня 2023 года
Протокол реестра рассылки за № 75 от « 06 » июня 2023 года



И.М. Тухтасинов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор педагогических наук, профессор

Г.К. Мирсанов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат филологических наук, доцент

Н.З. Насруллаева

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой филологии интенсивно изучаются такие проблемы, как структура дискурса и текста, их составные части, семантические свойства, место, занимаемое в системе языка и речи, языковые признаки и классификация. Создаются монографические и диссертационные исследования, посвящённые стилистическому, психолингвистическому, лингвокультурологическому, прагматическому и когнитивному анализу данных явлений. Антропоцентрический подход, постепенно развивающийся в настоящее время, актуализирует задачу научной характеристики текстов, написанных в различных стилях и жанрах, в качестве структур, отображающих коммуникативную цель их автора.

В мировых центрах лингвистики особое внимание уделяется анализу связи между лингвистической и ментальной вербализацией смысла на базе художественного дискурса. В результате языковые явления, связанные с человеческим фактором, подробно исследуются на стыке таких научных направлений, как культурология, лингвопрагматика и когнитология. Вместе с тем, возрастает необходимость совершенствования новых методов, процедур и механизмов анализа единиц и средств, формирующих смысловой состав художественного текста на основе теоретических и практических выводов, полученных в ходе интеграции ряда наук.

На современной стадии интенсивных реформ, происходящих в Узбекистане, отечественное языкознание также развивается в соответствии с требованиями времени. В частности, правильная интерпретация художественных текстов на различных языках послужит удовлетворению практической потребности лингводидактики. Глава государства выдвинул на повестку дня вопрос «создания методики профессионального перевода с государственного языка на иностранные языки и с иностранного языка на государственный язык, а также оказания помощи специалистам по данной сфере при повышении квалификации»²⁰. Таким образом, возникает необходимость в научном изучении дискурсивных и когнитивно-прагматических аспектов смысловой актуализации художественных текстов, свидетельствующих о национальной культуре каждой нации. В ходе определения специфики текстов, являющихся продуктом художественного мышления, с одной стороны, формируется цель совершенствования текстологии в теоретическом плане, а с другой стороны появляется возможность решения проблем, связанных с художественным переводом.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, установленных указами Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8-октября 2019-года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан», №УП-60 от 28-января 2022-года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-

²⁰Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-5117 “О мерах по поднятию деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень”.
Источник: <https://lex.uz/docs/5426736>

2026-годы», постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-3775 от 5-июня 2018-года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в широкомасштабных реформах, осуществляемых в стране», №ПП-4884 от 11-ноября 2020-года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», №ПП-4963 от 25-января 2021-года «О мерах по поддержке научно-исследовательской деятельности в сфере народного образования и внедрению системы непрерывного профессионального развития», №ПП-5117 от 19-мая 2021-года «О мерах по поднятию деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», а также другими нормативно-правовыми актами в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Исследования по изучению лингвистических свойств художественного текста и дискурса выполнялись рядом иностранных и отечественных учёных²¹.

Вопросы, связанные с изучением прагматических свойств текстов различных жанров, рассматривались в научных трудах М.Хакимова, С.Боймирзаевой, У. Носировой, Ш. Юсуповой и др.²².

В настоящее время особое внимание уделяется вопросу освещения когнитивной природы художественного выражения в рамках антропоцентрической теории текста. В число работ, выполненных в данном направлении, входят исследования по концептуализации, категоризации, теории концептов, интертекстуальности, когнитивной семантике, когнитивной стилистике²³.

